

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

DONAYEV ABDUQODIR HAYDAROVICH

**QURILISHI TUGALLANMAGAN OBYEKTЛАRNING
FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Donayev Abduqodir Haydarovich

Qurilishi tugallanmagan obyektlarning fuqarolik-huquqiy rejimi.....3

Донаев Абдукодир Хайдарович

Гражданско-правовой режим объектов незавершенного строительства.....23

Donayev Abduqodir Haydarovich

The civil law regime of objects unfinished construction.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....59

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

DONAYEV ABDUQODIR HAYDAROVICH

**QURILISHI TUGALLANMAGAN OBYEKTЛАRNING
FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Yu1291 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasriyev Ilhom Ismoilovich
yuridik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
yuridik fanlari doktori, professor

Baratov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 17-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (37-25-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 2-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 2-iyundagi 19-raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.M.Mehmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

F.H.Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda inson ehtiyojlarini qondirishda asosiy o‘rin egallovchi qurilish obyektlariga e‘tibor kundankunga kengayib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashni taqozo qilmoqda. Jumladan, qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimini belgilash dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon qurilish sanoati 2024-yilda 14,7 trillion AQSh dollari qiymatiga yetdi. Qurilish sanoati global yalpi ichki mahsulotning taxminan 13 foizini tashkil qiladi. Jahon qurilish sanoati 2021-yildan 2026-yilgacha yillik o‘rtacha o‘sish sur‘ati (CAGR) 4,2 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Turar-joy qurilishi sektori jahon qurilish bozorining taxminan 35 foizini tashkil etadi¹. Dunyo qurilish bozori 2027-yilga kelib 19,52 trillion AQSh dollariga yetishi baholanmoqda². Qurilish ishlari 2037-yilga kelib 13,9 trillion AQSh dollariga yetadi³. Mazkur raqamlar qurilishi tugallanmagan obyektlar sonini tobora ortib borayotganligi, yildan-yilga fuqarolik muomalasiga chuqurroq kirib borayotganligidan va u bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni davr taqozo qilayotganidan dalolat beradi.

Jahonda qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash, qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan mulkiy huquqlar va mulkiy manfaatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, qurilishi tugallanmagan obyektlarni faol fuqarolik muomalasiga kiritish, qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimini belgilashda sudlarning rolini oshirish, qurilish obyektlariga nisbatan raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy jihatlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda asosiy e‘tibor qurilish obyektiga nisbatan mulk huquqini e‘tirof etish, qurilish ishlarini olib borgan va buyurtma bergan fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilmoqda.

O‘zbekistonda qurilish sohasi bozor iqtisodiyotini rivojlanishi bilan birga o‘ziga xos tarzda taraqqiy etmoqda. Yurtimizda qurilish ishlari hajmining o‘sishi 2024-yilda – 8,8 foiz, YAIM o‘sishidagi ijobiy hissasi 0,6 foizni tashkil qilmoqda. 2024-yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida qariyb 233,8 trln. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yil bilan solishtirilganda 8,8 foizga oshgan. 2025-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 27 408 tani tashkil etgan. Qurilish korxonalarining eng katta qismi 6 555 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 23,9 foizi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan⁴. Bu borada alohida qonunchilik hujjatlari, yondashuvlar mavjud bo‘lib, doimiy ravishda huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirishga harakat qilinmoqda.

¹ <https://wifitalents.com/statistic/global-construction-industry/#:~:text=The%20construction%20industry%20contributes%20around,the%20total%20construction%20output%20globally.>

² <https://publications.aecom.com/MEH/report/global-construction-prospects-2024>

³ <https://www.constructionbriefing.com/news/how-much-will-the-global-construction-industry-be-worth-by-2037-/8031247.article?zephrossoott=iKv3a3>

⁴ Statistika agentligi Matbuot xizmati rahbarining rasmiy kanali // https://t.me/statistika_rasmiy

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qurilish sohasini tartibga solishda asosiy o‘rin egallaydi. Biroq, hozirgi kunda zamonaviy talablar bu borada yanada samarali huquqiy tartibga soluvchi normalar bo‘lishini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Shaharsozlik kodeksi (2021), O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuni (2022), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimi bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari milliy sivilistikada alohida yagona ish sifatida kompleks tadqiq etilmagan. Milliy huquq tizimimizda qurilish pudrati, ko‘chmas mulk obyektlarining umumiy jihatlari H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, D.M.Karaxodjayeva, I.I.Nasriyev, N.F.Imomov, M.X.Baratov, I.R.Rustambekov va boshqalarning asarlarida o‘rganilgan⁵.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda MDH) ga kiruvchi davlatlar olimlaridan Ye.A.Suxanov, M.P.Melnikova, S.A.Manjina, V.S.Savina, V.A.Dozorov, O.Ye.Blinkov, M.A.Verxoletoy, M.M.Gasanov, Ye.A.Grizixina, A.V.Nikiforov, N.Nazarova, K.K.Shalaginovlarning ayrim tadqiqotlari qurilishi tugallanmagan obyektlarning huquqiy maqomiga bag‘ishlangan.

Xorijiy mamlakatlarda qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimi masalasida Evenson Robert, Kanval Sunil, Aleks Tadjirian, Florens Volker, Stefan Prayk, Jon Xuyg, Chang Venjun va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borgan⁶.

Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lsa-da, bugungi kunda O‘zbekistonning rivojlanishi sharoitida fuqarolik qonunchiligi, huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimiga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sudyalar oliy maktabining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va tegishli ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁵ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

⁶ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning maqsadi – qurilishi tugallanmagan obyektlar huquqiy rejimiga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash bo'yicha milliy qonunchilik genezisini o'rganish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashning ilmiy metodologik asoslarini tahlil etish;

obyektlar qurilishini legal amalga oshirishni fuqarolik-huquqiy ta'minlash masalalarini ochib berish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan mulkiy huquqlar va mulkiy manfaatlar o'zaro uyg'unligini ta'minlash masalalarini tadqiq etish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarni faol fuqarolik muomalasiga kiritish masalalarini o'rganish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashda xorijiy mamlakatlar tajribasini aniqlash;

qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha sud amaliyotini tahlil etish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy etishni huquqiy ta'minlash masalalarini ochib berish;

qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimiga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari ilmiy bilishning tarixiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, statistik usullaridan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq qurilishi boshlangan, lekin ko'rsatilgan muddatda tugallanmagan yoki qurilishi tugallangan, biroq qurilishni (rekonstruksiya qilinishni) qabul qilib olish dalolatnomasi (foydalanish uchun ruxsatnoma) asosida foydalanish uchun qabul qilib olinmagan binolar va inshootlar qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'lishi asoslangan;

qurilishi tugallanmagan obyektlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, agar tegishli loyiha tashkiloti bu obyektlarning qurilishi boshlanganligini tasdiqlasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan amalga oshirilishi, bunda binoning va inshootning poydevorini hamda birinchi qavati devorlarini tiklash yakunlanganligi qurilishni boshlangan deb topilishi asoslab berilgan;

yangi aholi punktlarini joylashtirish hamda mavjudlarini rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va investitsiyaviy rivojlantirishning uzoq muddatli

prognozlariga, O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhiga, hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish tarhlariga hamda tumanni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalariga, aholi punktlari hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish va qurish to‘g‘risidagi shaharsozlik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhidagi loyiha yechimlari O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasi, shuningdek xalqaro va mintaqaviy integratsiya jarayonlari, qo‘shni davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha hududiy dasturlari hamda jahon tamoyillari hisobga olingan holda uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallab ishlab chiqilishi asoslab berilgan;

uyning va yordamchi imoratlarning ustiga, yoniga qo‘shimcha imoratlar qurish yoki ularni qayta qurish to‘g‘risidagi nizo, basharti bunga umumiy ulushli mulkning boshqa ishtirokchilari e‘tiroz bildirgan bo‘lsa, sudlarga taalluqli bo‘lishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilishi tugallanmagan obyekt (keyingi o‘rinlarda - QTO) – bu tegishli qurilish uchun yer uchastkasi ajratilgan va dastlabki usulda mulkiy huquqni vujudga keltiruvchi bino poydevori to‘liq qurilgan, muayyan mulkiy bahoga ega bo‘lgan, qurilishi to‘xtatilgan (konservatsiya qilingan) yoki tugatilgan va foydalanishga topshirilmagan ko‘chmas mulk obyekti ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi;

mulk huquqi yer uchastkasi mulkdoriga *superficies solo cedit* – qurilma yerga ergashish tamoyiliga, sobiq ittifoq davrida QTO qurilish materiallari rejimida bo‘lganligi tanqid qilingan holda, bugungi kunda yerning erkin tijorat muomalasida bo‘lishi sababli tadqiqot ishida mulk huquqi to‘liq, asosiy ashyoviy huquq sifatida tan olingan holda, QTOga nisbatan maqsadga muvofiq to‘laqonli foydalana olish imkonsizligi sababli, aynan mulkiy huquq rejimini belgilash zarurligi haqida xulosa chiqarildi;

QTO huquqiy rejimini belgilovchi huquqiy asoslar bugungi kunda fragmentar, tarqoq holda huquqiy munosabatlarni tartibga solishga ta’sir ko‘rsatmoqda. Sivilist olimlar va qonunchilikni tahlil qilgan holda QTOning huquqiy rejimini Fuqarolik kodeksi (83-modda)da ifodalanishi maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi;

mamlakatimiz huquqiy amaliyotida huquqni vujudga keltiruvchi “amniyatiya”larni kutib o‘zboshimchalik bilan imoratlar qurilishi va yer uchastkalarini egallab olish holatlari davom etayotganligi sababli QTOlarning faol fuqarolik muomalasida bo‘lishini ta’minlash, shuningdek noqonuniy qurilishlarni aniqlash (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi), doimiy monitoring olib borish tizimini joriy qilish lozimligi asoslab berildi;

QTO huquqiy rejimini belgilashga doir munosabatlar shaffof, bank orqali (eskrou hisobvarag‘i) o‘tishini ta’minlash, asosiysi majburiyatlarni bajarilishini ta’minlashga doir qonunchilik normalarini takomillashtirish zarur.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Tadqiqot ishidagi axborot bazasining ishonchliligi faqatgina rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan statistik ma’lumotlardan, shuningdek monografik

tadqiqotlarda tekshirilgan va nashr etilgan natijalardan foydalanilganligi bilan belgilanadi. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrdagi "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar tayyorlangan hamda ulardan qonun ijodkorligi jarayonida foydalanilgan.

Dissertatsiya ishining har bir bobi yakunida keltirilgan xulosalar, shuningdek dissertatsiya ishining xulosasida o'z aksini topgan umumnazariy to'xtamlar (qoidalar), qonun hujjatlarini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, qurilish huquqi modullarini ishlab chiqish va ularni yurisprudensiyaga ixtisoslashgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida, o'rganilgan muammoga oid o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq qurilishi boshlangan, lekin ko'rsatilgan muddatda tugallanmagan yoki qurilishi tugallangan, biroq qurilishni (rekonstruksiya qilinishni) qabul qilib olish dalolatnomasi (foydalanish uchun ruxsatnoma) asosida foydalanish uchun qabul qilib olinmagan binolar va inshootlar qurilishi tugallanmagan obyektlar ekanligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrdagi "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-803-sonli Qonuni 37-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 4-noyabrdagi №02/6-09-81-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflar qurilishni (rekonstruksiya qilinishni) qabul qilib olish dalolatnomasi (foydalanish uchun ruxsatnoma) asosida foydalanish uchun qabul qilib olinmagan binolar va inshootlar qurilishi tugallanmagan obyektlar hisoblanishini belgilashga xizmat qilgan;

qurilishi tugallanmagan obyektlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, agar tegishli loyiha tashkiloti bu obyektlarning qurilishi boshlanganligini tasdiqlasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan amalga oshirilishi, bunda binoning va inshootning poydevorini hamda birinchi qavati devorlarini tiklash yakunlanganligi qurilishni boshlangan deb topish uchun asos bo'lishi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrdagi "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-803-sonli Qonuni 37-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 4-noyabrdagi №02/6-09-81-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar binoning va inshootning poydevorini hamda

birinchi qavati devorlarini tiklash yakunlanganligi qurilish boshlanganligini aniqlashga imkon bergan;

yangi aholi punktlarini joylashtirish hamda mavjudlarini rivojlantirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va investitsiyaviy rivojlantirishning uzoq muddatli prognozlariga, O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhiga, hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish tarhlariga hamda tumanni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalariga, aholi punktlari hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish va qurish to‘g‘risidagi shaharsozlik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 10-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-960-sonli Qonuni 12-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi №25-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar yangi aholi punktlarini joylashtirish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va investitsiyaviy rivojlantirishning huquqiy asoslarini o‘rnatishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhidagi loyiha yechimlari O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasi, shuningdek xalqaro va mintaqaviy integratsiya jarayonlari, qo‘shni davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha hududiy dasturlari hamda jahon tamoyillari hisobga olingan holda uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallab ishlab chiqilishi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 10-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-960-sonli qonuni 49-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi №25-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflar O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhidagi loyiha yechimlarini ishlab chiqish asoslarini belgilashga imkon bergan;

uyning va yordamchi imoratlarning ustiga, yoniga qo‘shimcha imoratlar qurish yoki ularni qayta qurish to‘g‘risidagi nizo, basharti bunga umumiy ulushli mulkning boshqa ishtirokchilari e’tiroz bildirgan bo‘lsa, sudlarga taalluqli ekanligi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi “Yakka tartibda qurilgan uyga bo‘lgan mulk huquqi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 14-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 5-sonli qarori 2-bandi “v” kichik bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 30-apreldagi №08/433-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar qurilishlar bilan bog‘liq ayrim nizolarning sudga taalluqli hisoblanishini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola (1 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, 8 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashning zaruriyati va mohiyati”** deb nomlangan birinchi bobida qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash bo‘yicha milliy qonunchilik genezisi, qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashning ilmiy metodologik asoslari tahlil qilingan.

Muallif tomonidan qadimgi Rim huquqi o‘rganilishi natijasida qurilish obyektlari yer uchastkasi bilan chambarchas bog‘liqligi, yer uchastkasiga nisbatan “emfitevzis”, “superfitsiy” kabi ashyoviy huquq shakllari amal qilganligi, qurilmaga nisbatan mulk huquqi yer uchastkasi mulkdoriga *superficies solo cedit* – qurilma yerga ergashishi, yer bilan bog‘liq qoidasiga muvofiq tegishli bo‘lishi, ko‘chmas mulk alohida huquqiy rejimga bo‘ysunganligi aniqlandi.

Islom huquqi muhim manbasi hisoblanmish Hidoyani o‘rganish asosida muallif uylarni sotib olayotganda uni ko‘rib, tekshirib olish huquqi xaridorga tegishli ekanligini, sotib oluvchi uyning yashash xonalarini ko‘rib chiqishi lozimligi, uy-joy oldi-sotdi bitimiga barcha ko‘chmaydigan anjomlar ham kiritilishi, qurilishi tugallanmagan obyektlarga ham mazkur mezonlar tadbiiq etilishini asoslantirib bergan.

Sobiq ittifoq davrida Grajdanklik kodeksi QTOni alohida obyekt sifatida ko‘rmagan va muomalada bo‘lishiga doir qoidalarni alohida belgilab ham bermagan. Shunday bo‘lsa-da, 1964 yilgi RSFSR Grajdanklik kodeksining 239.1.-moddasida qurilish materiallari oldi-sotdisi notarial tartibda tasdiqlanishiga doir qoida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasiga

muvofig, davlat uy-joy qurilishini rag'batlantiradi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu huquqiy norma QTONi huquqiy rejimini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan ushbu norma garchi uy-joy insonlar hayotida asosiy o'rinni egallasa-da, umumiy ma'noda ko'chmas mulkni vujudga kelishi, qurilishi, loyihalashda ham dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Demak, har qanday uy-joy (ko'chmas mulk) vujudga kelishi uchun avvalo, yer uchastkasi bo'lishini taqozo etganligi sababli, har doim QTO rejimida bo'lishi tabiiy. Qurilish faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat sifatida 2021-yil 23-mayda kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu normativ-huquqiy hujjatga ko'ra, har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs obyektlarni qurish bo'yicha pudratchini tanlash va u bilan pudrat shartnomasini tuzish huquqiga ega.

V.Ergashev va N.Imomovlar QTONing huquqiy maqomini belgilovchi va ular bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy bitimlarni rasmiylashtirish qoidalarini nazarda tutuvchi "Qurilishi tugallanmagan obyektlarni muomalaga kiritish va ular bilan bog'liq bitimlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni qabul qilish lozimligini ta'kidlashgan. Yangi nizom qabul qilishdan ko'ra, mavjud qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, xususan FKning 83-moddasiga QTONing maqomiga oid norma kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. FKning 83-moddasida ko'chmas mulklar jumlasiga qaysi obyektlar kiritilishi haqida qoida mavjud.

Biroq bu o'rinda mazkur norma QTOlarni ko'chmas mulk qatoriga kiritmaydi. Shunday bo'lsa-da, milliy huquq tizimimizda o'ziga xos yangi huquqiy novellalar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, ko'chmas mulk obyektlarini erkin fuqarolik muomalasida bo'lishini takomillashib borayotganligi, turli byurokratik, ma'muriy to'siqlarlarni barham topishi mazkur obyektlarni bozor munosabatlariga faol kirib borishiga turtki bo'lmoqda.

2022-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ammo qonunni amaliy talqin qilishda bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda barcha bosqichlarni to'g'ri va adolatli amalga oshirishga oid xavflar mavjud. Bunda ko'chmas mulkka oid cheklovlarning qayd etilishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyatiga rioya qilinmasligi holatlari huquq egalari manfaatlariga zid.

Ilmiy doirada "qurilishi tugallanmagan obyekt" tushunchasi huquqiy yoki funksional ahamiyatga ega ekanligi borasida bahslar mavjud. "Ko'chmas mulkning huquqiy nazariyasi" asosida yotgan postulat ko'chmas mulk faqat mulk huquqi va boshqa huquqlar belgilanishi mumkin bo'lgan, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mol-mulk bo'lishi yotadi. Ushbu nazariya asosi sifatida esa, QTOga nisbatan ko'chmas mulk kabi davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir qonunchilik talabi keltiriladi.

Bu nazariyaga qarshi turadigan "ko'chmas mulkning fizik nazariyasi" (V.A.Alekseyev, V.V.Vitryanskiy, B.M.Gongalo, A.P.Sergeyev, S.A.Stepanov) mavjud bo'lib, u QTONi ko'chmas mulk sifatida tan olish uchun yer bilan

mustahkam bog'langanligi va zarar keltirmagan holda uning ko'chirilishi imkonsizligi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, QTOning ko'chmas mulk sifatida tan olinishi uning jismoniy aloqasi bilan belgilanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan nazariyalar tahlili shundan dalolat beradiki, qarama-qarshilik huquqiy voqelik sifatida ko'chmas mulkning mohiyati borasida emas, balki uning mavjud bo'lishiga doir alohida rejim jihatlari bilan bog'liq. QTOlarga ko'chmas mulk huquqiy rejimi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin beriladi. Bu huquqiy rejim obyektini to'liq ko'chmas mulk sifatida tasarruf etish imkonini beradi. Lekin bu imkoniyatlar faqat yuridik fakt sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali yuzaga kelmaydi.

Dissertatsiyaning **“Qurilishi tugallanmagan obyektlarni vujudga kelishi va ularni fuqarolik muomalasida transformatsiya shakllari” deb nomlangan ikkinchi bobida** obyektlar qurilishini legal amalga oshirishni fuqarolik-huquqiy ta'minlash masalalari, qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan mulkiy huquqlar va mulkiy manfaatlar o'zaro uyg'unligini ta'minlash masalalari, qurilishi tugallanmagan obyektlarni faol fuqarolik muomalasiga kiritish masalalari tahlil qilingan.

L.Netishinskaya, N.Blagodarovaning ta'kidlashlaricha, qonunchilik mulkiy huquqlar fuqarolik huquqlarining obyektini sifatida tahlil qilinganda, shunday holat kelib chiqadiki, mulkiy huquqlar uchun eng keng hajmda huquqiy tartibga solish garovga nisbatan mulkiy huquq uchun o'rnatilgan. Bu garovga qo'yuvchi majburiyatidan kelib chiqadigan mulkiy huquq (talab)ning garovi hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi mulkiy huquqlarni garovga qo'yish bo'yicha bir qator cheklov qoidalarini nazarda tutadi, xususan, agar huquq egasi va uning qarzdori o'rtasida huquqni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanganligi haqida kelishuv mavjud bo'lsa, mulkiy huquq (talab)ni garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik adabiyotlarda talab huquqining xususiyatlari haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, fuqarolik huquqining obyektlari narsalar va boshqalarning harakatlaridir va bu ikkisi ham mulk tushunchasiga mos keladi. Fransiya qonunchiligi tahlil qilinsa shu holat ko'rinadiki, majburiyatlarning umumiy nazariyasiga ko'ra, talab qilish huquqi qiymatga, bahoga aylanganligi ta'kidlanadi. Fransiya sivilistlari esa majburiy talablar o'z mohiyatiga ko'ra moddiy bo'lmagan mulk hisoblanishini ta'kidlaydilar. Chunki, bu huquq bitim predmeti bo'lishi mumkin va shu orqali fuqarolik muomalasiga kirib, pul bilan baholanadigan qiymatga aylanadi.

Mulkiy huquq albatta o'z “izi”ga ega bo'ladi. Buni Z.Amonov hujjat shaklida bo'lishiga urg'u qaratadi, biroq subyektini aniqlash uchun ro'yxat mavjud bo'lishi esa, aynan QTOga nisbatan qo'llash imkoniyati birmuncha murakkab. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi “Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi PQ-4732-son Qaroriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, elektron ro'yxat ulush kiritish asosida qurish uchun mablag'larni jalb etuvchi quruvchilar hisobini olib borish hamda ulushdorlar huquq va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida yuritiladi.

O'ziga xos sanksiya sifatida esa, elektron ro'yxatga kiritilmagan qurilish majmualarini reklama qilish taqiqlanishi belgilangan.

Shu bilan birga, quyidagi holatlarda qurilish majmuasi vakolatli davlat organi tomonidan muammoli obyektlar toifasiga kiritiladi: qurilish va shaharsozlik norma va qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi; qurilish obyektlarini foydalanishga topshirish muddati asossiz ravishda olti oydan ortiq muddatga kechikishi; quruvchi tomonidan ulushdorlarga qurilish obyektlarini topshirish majburiyati buzilishi yoki uni bankrot deb topilishi.

Mulkiy huquqlarni himoya qilish tizimining nazariy asoslari yaratilishi, QTOga nisbatan mulkiy huquqlar iqtisodiy nuqtayi nazardan alohida bahoga ega bo'lishi qonunchilikda belgilanishi lozim. Aks holda turli sanksiyalar, javobgarlik choralari ushbu huquqqa nisbatan undiruv qaratishga, huquqni qo'lga kiritishga to'sqinlik qiladi.

Shaharsozlik kodeksining 32-moddasiga ko'ra, qurilishi tugallangan obyektни foydalanishga qabul qilish buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga muvofiq to'liq tayyor bo'lganda va ijro hujjatlari, muvofiqlik deklaratsiyasi, bajarilgan ishlarning tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga muvofiqligi va qurilish-montaj ishlarining sifati to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

Qurilishi tugallangan obyektни qabul qilish pudratchi va buyurtmachi o'rtasida imzolanadigan, qurilishi tugallangan obyektни topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Komissiya tuzilgan hollarda, qurilishi tugallangan obyektни topshirish-qabul qilish dalolatnomasi komissiya a'zolari, buyurtmachi, ishlab chiquvchi, pudratchi hamda texnik va mualliflik nazoratini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 14-son qarorida QTO huquqiy maqomiga doir tushuntirishlar berilmagan. Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar garchi cheklangan ashyoviy huquq bo'lib ularga nisbatan umumiy mulk rejimi joriy qilinsada, unga nisbatan huquqlarni amalga oshirish, huquqlar taqsimlanishi yoki taqsimlanmasligiga doir masala hal qilinmagan.

Dissertatsiyaning **“Qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashda fuqarolik-huquqiy vositalar samaradorligini oshirish masalalari”** deb nomlangan uchinchi bobida qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi, qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha sud amaliyoti, qurilishi tugallanmagan obyektlarni fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy etishni huquqiy ta'minlash masalalari tahlil qilingan.

Xalqaro baholash standartlariga (MSO) muvofiq, QTO ko'chmas mulk sifatida qaraladi. MSOga ko'ra, ko'chmas mulk yer uchastkasi va unga mustahkam birlashtirilgan, inson tomonidan yaratilgan elementlarni o'z ichiga oladi. Bu jismoniy, seziladigan "narsa" bo'lib, uni ko'rish va sezish mumkin, yer yuzida, yer ostida yoki yer ustida joylashgan barcha qo'shimchalarni o'z ichiga oladi. Har bir

mamlakatda mahalliy qonunchilik ko'chmas va ko'char mulkni ajratish uchun asosiy belgilarni nazarda tutadi. Garchi bu huquqiy tushunchalar barcha mamlakatlarda tan olinmagan bo'lsa-da, MSO ularni muhim terminlarni aniqlash uchun qo'llaydi.

YUNISITRALning 1987-yilda qabul qilingan "Sanoat obyektlarini qurish bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish bo'yicha huquqiy qo'llanma"ning XIII bob, ikkinchi qismi, 7-bandida qayd etilganidek, qurilish ishlari toki ishonchli sinovlar o'tkazilmaguncha to'liq yakunlangan deb hisoblanmaydi. Agar sinov natijalari qoniqarli bo'lmasa, rasmiy hujjatda qaysi turdagi qurilish ishlari yakunlanmaganligi ko'rsatilishi mumkin. Ya'ni, QTOlar haqidagi tushuncha xalqaro huquqiy hujjatlarda ham tan olingan.

Ushbu xalqaro hujjat qurilish loyihalarida obyektlar foydalanishga topshirilishidan avval amalga oshirilishi zarur bo'lgan sifat va xavfsizlik sinovlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Agar belgilangan standartlarga javob berilmasa, QTO deb hisoblanadi va tegishli choralar ko'riladi. Demak, QTO xalqaro huquqiy hujjatlarda ham tan olinadi.

Qurilish sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan xalqaro standartga doir atamalar, qonunchilik hujjatlari mazmuniga doir qoidalarni milliy qonunchilikka tatbiq etishda Yevropa Ittifoqi (European Codes), Buyuk Britaniya (British Standards), Xitoy milliy qurilish standartlari (GB, CJ, JC, JG va boshqalar), AQSH xalqaro qurilish kodlari (International building code), yurtimizda ma'lum darajada faol muomalada bo'lgan Rossiya Federatsiyasining Qurilish me'yorlar va qoidalar (SNIP), Yaponiya milliy standartlari (Japanese Industrial Standards) muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Britaniya tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, QTOga aniq ta'rif berilmagan va qancha uy-joy loyihalari tugallanmaganligi haqida ma'lumotlar ham mavjud emas. Binoning individual belgilarini aniqlash zarurati mavjud bo'lib, bu yerda mulk, unga nisbatan da'vo qo'zg'atish va mulk huquqini tiklash imkoniyatiga qarab, "real" va "personal" mulkka bo'linadi.

Amerika huquqida, xususan, qurilish materiallari yer uchastkasi bilan ajralmas bog'liq bo'lgan tizimga aylanganida, bu tizim yer uchastkasidan farqli alohida mulk obyekti sifatida qaraladi. Bu jihat da'volar va mulk huquqini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, G.Laskning fikricha, yerda bo'lgan tosh ko'chmas mulk sifatida ko'riladi, uni yerdan qazib olib chiqilganda esa u ko'char mulkka aylanadi. Agar u qurilish material sifatida bino qurilishida qo'llanilsa, u yana ko'chmas mulkka aylanadi. Shuning uchun, qurilishning tayyorlik darajasini aniqlashda, bino materiallari yer bilan ajralmas bog'liq tizimga aylanganligini inobatga olish kerak.

AQSh Qonunlar majmui hamda shtatlarga taalluqli masalalar ularning tegishli me'yoriy hujjatlari bilan qurilish sohasi tartibga solinadi. Avstraliya va Yangi Zelandiyada esa pretsedent huquqi amal qilganligi uchun pudrat ishlarini bajarishga qaratilgan maxsus qonun mavjud emas.

Germaniyada QTO atamasi ishlatilmasdan, balki "muhim tarkibiy qism" so'zidan foydalaniladi va u yer uchastkasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'riladi. Binoning tarkibiy qismlari sifatida unga qurilish uchun qo'shilgan

ashyolar tan olinadi. Biroq yerga vaqtinchalik maqsadlarda birlashtirilgan buyumlar yer uchastkasining tarkibiy qismi hisoblanmaydi. Bu qoida yer uchastkasini qonuniy tarzda foydalanish huquqiga ega shaxs tomonidan qurilgan inshootlar yoki boshqa obyektlarga nisbatan amal qiladi.

Fransiyada yer uchastkasiga birlashtirilgan bino ko'chmas mulk deb hisoblanadi. U yer uchastkasi bilan birgalikda yagona mulk sifatida ko'riladi. Qurilish materiallari, o'zining individual xususiyatini yo'qotib, ko'chmas mulkning tarkibiy qismiga aylanadi. Garchand qurilish yer uchastkasi egasi emas, boshqa shaxsga tegishli bo'lishi mumkinligi tan olinsa ham, yer uchastkasining tarkibiy qismi bo'lgan qurilish unga birlashtirilgan deb hisoblanadi va avtomatik tarzda yer uchastkasi egasiga tegishli bo'ladi.

Qit'a huquq tizimlari tahlilidan ko'rinadiki, qurilish ishlari olib borilayotgan paytda bino mustaqil ko'chmas mulk obyekti sifatida ko'rib chiqilmaydi. Mustaqil ko'chmas mulk sifatida yer uchastkasi tan olinadi, bino esa uning tarkibiy qismi bo'lib, bu rim huquqidan olingan umumiy qoidaga asoslanadi: superficies solo cedit – ya'ni yer uchastkasi bilan ajralmas bog'liq bo'lgan har qanday narsa yer uchastkasi egasiga tegishli deb tan olinadi.

Ayrim davlatlar (Angliya, Shvetsiya, Yangi Zelandiya, Avstraliya va Janubiy Afrika) ko'chmas mulkni aniqlashda "uch o'lchamli ko'chmas mulk" konsepsiyasiga o'tgan. Bu konsepsiyaga ko'ra, ko'chmas mulk faqat yer uchastkalari emas, balki jismoniy yoki qurilish hujjatlarida belgilangan chegaralarga ega bo'lgan uch o'lchamli fazoning konturi sifatida ham qaraladi.

Uch o'lchamli ko'chmas mulk tushunchasi, asosan, qurilishdagi jadal rivojlanish va yer resurslaridan samarali foydalanish talablari ortishi tufayli yuzaga kelgan. Bu yerda yer yuzasidagi va yer ostidagi joylar ham ko'chmas mulkning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Masalan, ko'p qavatli uylar yoki tunnellar shunday uch o'lchamli ko'chmas mulk obyektlariga kiradi. Bu konsepsiya mulk huquqlarini kengroq tushunishga yordam beradi va jismoniy hududlardan tashqari yer osti yoki havo fazosidan foydalanishni ham huquqiy jihatdan tan oladi. Bunday yondashuv ayniqsa zich rivojlangan shaharlarda keng qo'llaniladi.

XULOSA

Qurilishi tugallanmagan obyekt (keyingi o'rinlarda-QTO)larni fuqarolik-huquqiy rejimini tahlil qilgan holda quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. QTO tushunchasiga ilmiy-doktrinal ta'rif berildi. QTO – bu tegishli qurilish uchun yer uchastkasi ajratilgan va dastlabki usulda mulkiy huquqni vujudga keltiruvchi bino poydevori to'liq qurilgan, muayyan mulkiy bahoga ega bo'lgan, qurilishi to'xtatilgan (konservatsiya qilingan) yoki tugatilgan va foydalanishga topshirilmagan ko'chmas mulk obyektidir. Bu tushuncha fuqarolik qonunchiligida ifodalanishi lozim.

2. Dissertatsiyada QTOlar fuqarolik-huquqiy rejimini tahlil etish asosida muallif fuqarolik huquqi obyektlari belgilari bo'yicha fuqarolik huquqi obyektlari

hisoblangan moddiy ashyolar muayyan qiymatga ega bo'lishi va muomalada bo'lishi xususiyati (oborotosposobnost) kifoya qiladi. Obyektda har doim ham muayyan ehtiyojlarni qondirish sifatiga ega bo'lish talab etilmaydi, degan umumlashma xulosaga kelindi.

3. Yer uchastkasiga nisbatan xususiy mulk huquqi (Ye.Suxanov, N.Imomov, V.Ergashev, O.Oqyulov) rejimini tatbiq etish borasida yakdil fikr mavjud emas. Uzoq vaqt davomida mulk huquqi yer uchastkasi mulkdoriga *superficies solo cedit* – qurilma yerga ergashish tamoyiliga, sobiq ittifoq davrida QTO qurilish materiallari rejimida bo'lganligi tanqid qilingan holda, bugungi kunda yerning erkin tijorat muomalasida bo'lishi sababli tadqiqot ishida mulk huquqi to'liq, asosiy ashyoviy huquq sifatida tan olingan holda, QTOga nisbatan maqsadga muvofiq to'laqonli foydalana olish imkonsizligi sababli aynan *mulkiy huquq* rejimini belgilash zarurati asoslandi. Bu ushbu obyektlarni fuqarolik muomalasini ta'minlashda asosiy o'rin egallashi lozim.

4. Mamlakatimiz huquqiy amaliyotida huquqni vujudga keltiruvchi "amnistiya"larni (A.Raximjonov, J.Raxmatillayev) kutib o'zboshimchalik bilan imoratlar qurilishi va yer uchastkalarini egallab olish holatlari davom etayotganligi sababli, QTOlarning faol fuqarolik muomalasida bo'lishini ta'minlash, shuningdek noqonuniy qurilishlarni aniqlash (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi), doimiy monitoring olib borish tizimini joriy qilish lozim. Ushbu tizimning joriy etilishi keyinchalik milliardlab so'm mablag' sarflangan ko'chmas mulk taqdirini qanday hal qilishga doir muammoni samarali hal qilish imkonini bergan bo'lar edi.

5. MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonda ulushli asosda qurilishda ishtirok etish sohasida tizimli muammolar o'n yillar ilgari yuzaga kelgan edi. O'zbekistonda bu kabi muammolar yaqin-yaqinlargacha uchramadi yoki ko'zga tashlanmagan bo'lsa-da, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va qurilish ishlarining ko'lamini ortishi oqibatida uy-joyga bo'lgan aholi ehtiyojini ta'minlashda muammolar yuzaga kela boshladi.

QTO huquqiy rejimiga doir qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, shartnomaviy munosabatlarda majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan (garov, eskrou, sug'urta) samarali foydalanish ko'plab nizolarni oldini olishga xizmat qiladi.

6. Hozirga qadar nazariy jihatdan ham, amaldagi qonunchilikda ham "qurilish tugallanmagan obyektlar"ni boshqa obyektlardan farqlaydigan va uning asosiy belgilarini o'z ichiga olgan tushuncha mavjud emas.

"Qurilishi tugallanmagan obyekt" atamasi asosiy ko'chmas mulk ma'nosini to'ldirishi lozim va bu atama ham tugallangan, ham tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qo'llaniladi.

QTO sifatida tan olish uchun:

1) qurilish huquq yo'l qo'ygan asosda boshlangan bo'lishi va qurilish obyektidan maqsadiga muvofiq hali foydalanish imkoniyati yuzaga kelmagan bo'lishi;

2) yer uchastkasi bilan mustahkam va uzviy bog'liq bo'lishi (aks holda ko'chma vagonlar, konteyner uylar ham QTO toifasiga mansub bo'lib qoladi)

hamda ma'lum darajada tayyorgarlikka erishilgan, ya'ni bino poydevori qurilgan bo'lishi;

3) qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlari mavjud bo'lishi;

